



**CONTENT ANALYSIS OF THE ASSORTMENT OF
SEDATIVE DRUGS IN THE PHARMACEUTICAL
INDUSTRY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Elboyeva V.N.

Safarova D.T.

Tashkent Pharmaceutical Institute, Tashkent city, Republic of
Uzbekistan. e-mail: vasila.elbayeva@mail.ru, tel. (97) 912 57 75
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17816024>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2025

Accepted: 29th November 2025

Online: 30th November 2025

KEYWORDS

*Sedative dosage forms,
pharmaceutical market,
technology, central nervous
system.*

ABSTRACT

This article presents the research results on the theoretical and experimental foundations of sedative preparations available on the domestic pharmaceutical market. Literature data have been summarized and systematized, and the expediency of increasing the volume of import-substituting medicinal products has been demonstrated. In addition, the results of studies evaluating the prospects for developing and applying sedative preparations based on medicinal plants are provided. Opportunities for local manufacturers to establish the production of sedative preparations derived from natural raw materials, including dry extracts, are also highlighted.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARMATSEVTIKA BOZORIDA SEDATIV
DORI TURLARI ASSORTIMENTINING KONTENT TAHLILI**

Elboyeva.V.N.

Safarova.D.T

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi
e-mail: vasila.elbayeva@mail.ru tel. (97) 912 57 75
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17816024>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2025

Accepted: 29th November 2025

Online: 30th November 2025

KEYWORDS

*Sedativ dori shakllari,
farmatsevtika bozori,
texnologiya, markaziy nerv
sistemi.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada mahalliy farmatsevtika bozorida sedativ ta'sirga ega bo'lgan preparatlarning nazariy va eksperimental asoslari bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Adabiyot ma'lumotlari umumlashtirilib, tizimlashtirilgan hamda import o'rnini bosuvchi vositalar hajmini oshirishning maqsadga muvofiqligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, dorivor o'simliklar asosida sedativ preparatlar yaratish va qo'llash istiqbollarini baholash bo'yicha tadqiqotlar natijalari keltirilib, tabiiy xomashyo, jumladan, quruq ekstrakti asosida mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan sedativ ta'sirga ega bo'lgan preparatlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish imkoniyatlari yoritilgan.



Farmatsevtika sohasining asosiy maqsadi aholining xavfsiz, samarali va ayniqsa, har bir bemor uchun qulay bo'lgan dori vositalari bilan ta'minlanishidir. Hozirgi vaqtda mahalliy farmatsevtika korxonalari yangi samarali preparatlar ishlab chiqarib, xorijiy dori vositalari ishlab chiqaruvchilari bilan muvaffaqiyatli raqobat qilmoqda. Zamonaviy farmatsevtika fanini rivojlantirish uchun muhim yo'nalishlardan biri assortimentni kengaytirish va tabiiy hamda yaxshi o'rganilgan o'simlik xomashyosi asosida samarali dori vositalarini izlab topish hisoblanadi. [1]

Oxirgi yillarda tibbiyotda o'simlik xom ashyolari asosida olingan dori vositalarining ulushi yildan yilga ortib bormoqda va bugungi kunga kelib 60% dan ko'proqni tashkil qiladi. O'simliklardan olingan dorilarga talab oshib borishining asosiy sabablaridan biri ularning organizmga yumshoq ta'sir ko'rsatishi, kam hollarda nojo'ya ta'sirni namoyon qilishi hamda arzonligini keltirish mumkin. Shu sababli dorivor o'simlik xom ashyolaridan olingan dorilar ko'lamini kengaytirish tibbiyot sohasida katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi rivojlangan zamonda turli kasalliklarning kelib chiqishi bilan birgalikda rivojlanishi ham tez sur'atlarda o'sib bormoqda.

Ulardan biri bu asab kasalliklaridir. Raqamli texnologiyalar rivojlangan bir paytda turli tashqi omillar hamda inson ichki emotsional holatlarining o'zgarishi bilan bog'liq hollarda turli xil ko'rinishlarda asab zo'riqish kasalliklari avj olmoqda. Bu o'z navbatida boshqa kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ishtirokida olib borilgan «Kasalliklar, jarohatlar va ularning xavf omillari global yuklanishi – 2021» tadqiqoti ma'lumotlariga asosan, Lancet Neurology jurnalida chop etilgan yangi yirik tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda dunyoda 3 milliarddan ortiq odam nevrologik kasalliklardan aziyat chekib kelmoqda.

Bu ma'lumotlar asosida 2021-yilda yetakchi nevrologik kasalliklarning o'ntaligiga quyidagilar kiritilgan: insult, neonatal ensefalopatiya (bosh miyaning shikastlanishi), migren, demensiya, diabetik neyropatiya (asab tolalarining shikastlanishi), meningit, epilepsiya, muddatidan oldin tug'ilgan bolalardagi nevrologik buzilishlar, autizm spektri buzilishlari va asab tizimi onkologik kasalliklar.

Ruhiy kasalliklarning sabablari quyidagilarga bo'linadi:

- 1) endogen, irsiy;
- 2) ekzogen, tashqi omillar;
- 3) psixogen omillar, shaxsiy nizolar, psixotravmatik vaziyatlar;
- 4) somatogen, somatik kasalliklar ta'sirida yuzaga keladigan.

Professor A.B. Smulevichning ta'kidlashicha, nevrotik buzilishlarning, ayniqsa depressiv holatlar bilan namoyon bo'ladigan shakllari psixogen omillar, hamda irsiy moyillikning birgalikdagi ta'siri natijasida yuzaga keladi [3,4].

Inson organizmidagi eng zaif tizimlardan biri bu asab tizimidir. Shu sababli, uning ishidagi eng kichik buzilish ham hayotimizga sezilarli ta'sir ko'rsatib, uni ancha yomonlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, asab kasalliklari (miya, mushaklar, periferik nervlar va boshqalarni zararlaydi) juda xavfli bo'lib, ular oshqozon-ichak trakti, yurak va qon tomirlar bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin [2].



Sedativ dori vositalari markaziy nerv sistemasining (MNS) buzilishlarini kompleks davolashda qo'llaniladi. Ular bemorning holatini yaxshilash va ruhiy hamda jismoniy salomatlikning yanada jiddiy buzilishlarining oldini olishga qaratilgan bo'ladi.

Asab tizimi buzilishlarini davolash uchun sedativ dori vositasini tanlash muammosi hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Sintetik sedativ preparatlar, anksiolitiklar va antidepressantlar mavjud bo'lishiga qaramay, o'simlikka asoslangan vositalar tibbiyot amaliyotida yuqori asabiylashish, nevrozlar, uyqu buzilishlari va nevrasteniya kabi holatlarda keng qo'llanilmoqda.


Ma'lumki, o'simlik asosidagi dori vositalari sintetik preparatlarga qaraganda yumshoqroq ta'sir ko'rsatadi, ularning effekti o'ziga xos tabiiy komponentlar majmuasi tufayli yanada umumiy va barqaror bo'ladi. Bundan tashqari, fitopreparatlar kamroq toksik hisoblanadi, bu esa ularni organizmga sezilarli salbiy ta'sirsiz uzoq muddat qabul qilish imkonini beradi. Shu sababli, zamonaviy tibbiyotda o'simlik asosidagi dori vositalari eng samarali va xavfsiz sedativ preparatlar qatoriga kiradi.

Asab tizimi kasalliklarini davolashda tinchlantiruvchi ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simliklar qo'llaniladi. Tormozlanish jarayonlarining kuchayishi fonida ayrim o'simliklar gipotenziya ta'sirini, antioksidant ta'sirni oshirishga va miya qon aylanishini yaxshilashga yordam beradi. Markaziy asab tizimining dastlabki holati, orttirilgan qo'zg'aluvchanlik, neyrotsirkulyator buzilishlarni hisobga olgan holda dorivor o'simlik preparatlarini diferensial tanlash aniq neyroprotektiv ta'sir ko'rsatishga imkon beradi [5].

Sedativ ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simliklar guruhi tarkibiga uzoq vaqtdan beri qo'llanib kelinayotgan o'simliklar kiradi: dorivor valeriana ildizi, limon o'ti, dorivor pion, besh bo'lakli arslonquyruq va lavanda.


Nerv sistemasi kasalliklarini davolash uchun yangi samarali dori vositalarini ishlab chiqish sohasida ilm-fan sezilarli darajada rivojlanganiga qaramay, ushbu kasallikning o'sishi yildan yilga oshmoqda. Mamlakatning farmatsevtika bozorida nerv kasalliklarini kelib chiqishini oldini olish va davolash uchun tabletkalar, kapsulalar, yig'malar, kukunlar, damlamalar, ekstraktlar, infuziyalar, damlamalar va boshqa dori shaklida ishlatiladigan fitopreparat va sintetiklarning keng assortimenti mavjud. Ilmiy manbalar nerv sistemasi kasalliklarini davolash uchun ishlatiladigan ko'plab dorilarning mavjudligi o'rganilgan. Ushbu kasalliklarni davolash va oldini olish uchun turli xil kombinatsiyalarda tayyorlangan va ularning farmakologik samaradorligini oshiradigan dorivor o'simlik xomashyolari asosidagi dorilar ham mavjud.

Davlat dori vositalari reestri (DDVR) ma'lumotlariga ko'ra, sedativ ta'sirga ega o'simlik preparatlari bozorni xorijiy va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan turli farmatsevtik shakllarda ta'minlamoqda: tabletkalar, kapsulalar, draje, dorivor o'simlik yig'indilari va eritmalar shaklida. Taxminan yarim qismi xorijiy preparatlari bo'lsa, mahalliy kombinatsiyalangan preparatlar ulushi undan ham kamroq. Mahalliy sedativ vositalarning aksariyati spirtli eritmalar va damlamalar shaklida bo'lib, bu ularning pediatriya amaliyotida, homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llanilishini cheklaydi. Dorivor o'simliklarning xilma-xilligi va boy kimyoviy tarkibi ularning yangi kombinatsiyalarini izlash imkonini beradi. Bu kombinatsiyalar o'zaro uyg'unlashgan holda barqaror va aniq ifodalangan sedativ ta'sir ko'rsatishi mumkin.




5-rasm. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan preparatlar tahlili

Unga ko'ra 2696 ta dori nomi ro'yxatga olingan bo'lib, shulardan 24 nomdagi sedativ preparatlardir. Bu ko'rsatgich jami mahalliy ro'yxatga olingan preparatlarning 2% ni tashkil etadi. 24 nomdagi sedativ preparatlar o'z navbatida 14 ta mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan.



6-rasm. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan sedativ DV tahlili


Shu 24 nomdagi sedativ preparatlar miqdori 100% deb hisoblanganda, shulardan tabletka va kapsula dori shaklidagi preparatlar 9% dan, o'simlik xomashyolar 8%, suyuq ekstrakt, tomchi, eritma va qiyom dori vositalari tegishli 4% ni tashkil etadi.



7-rasm. Davlat ro'yhatidan o'tgan MDH davlatlari ishlab chiqargan preparatlar tahlili

Dori vositalari va tibbiy buyumlarining Davlat reestrda MDH davlatlari tomonidan ishlab chiqarilgan 1333 nomdagi dori pereparatlari ro'yxatga olingan (7-rasm).

Shulardan 18 nomdagi dorilar sedativ ta'sirga ega. Bu reestrda kiritilgan jami MDH davlatlari ishlab chiqargan preparatlarning 1,35 % ni tashkil qiladi.




8-rasm. MDH davlatlari ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan sedativ DV tahlili

Tashkil etgan 1,35% ya'ni 18 nomdagi sedativ dori vositalari o'rganilganda 67% (12 ta) tabletka, 17% (3 ta) tomchi, 11% (2 ta) eritma, 5,5% (1 ta) kapsula shaklidagi sedativ preparatlar ekanligi aniqlandi (8-rasm).


Xorijiy ishlab chiqaruvchilari tomonidan jami bo'lib Dori vositalari va tibbiy buyumlarining davlat reestriga 4611 ta dori vositalari ro'yxatga olingan bo'lib, shulardan

22 ta preparat sedativ xarakterga egadir. Bu o'z navbatida umumiy preparatlarning 1% ni tashkil qiladi (9-rasm).



9-rasm Davlat reestriga kiritilgan xorijiy korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan DV

Ushbu 1% (22 ta) sedativ preparatlardan 45% (10 ta) kapsula, 27% (6 ta) tabletka, 14% (3 ta) qiyom va 4%(1ta)dan tomchi,suspenziya va eritma shakllaridagi dori preparatlar ekanligi aniqlandi (10-rasm).



10-rasm. Xorijiy ishlab chiqaruvchilari tomonidan royxatga olingan sedativ DV tahlili



Materiallar va usullar: Sedativ ta'sirga ega bo'lgan dori vositalari O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida holatini o'rganish uchun kontent tahlil usuli qo'llanildi. Buning uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat berilgan O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori moddalari va tibbiy buyumlarini Davlat Reestridan foydalanildi.

Xulosa: yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib, nerv sistemasi kasalliklariga ta'sir ko'rsatadigan preparatlar olishning dolzarb yechimi sifatida keltirilgan dorivor o'simlik xomashyolarini belgilangan komponentlar nisbatida oqilona birlashtirish va ularning farmako-toksikologik xususiyatlarini keyinchalik o'rganish imkoniyati bo'ladi.

References:

1. Иващенко А.А, Кравченко Д.В. Концепция инновационного развития отечественной фармацевтической отрасли//Ремедиум. 2008.-№5.-С.14-18
2. <https://onpsy.ru/nevrologiya/porazhenie-nervnoy-sistemy-prichiny-i-simptomy/?ysclid=m7f1stv9dg631182101> Поражение нервной системы: причины и симптомы
3. Ю.И. Полищук, З.В. Летникова. Многофакторные причины возникновения и развития непсихотических депрессивных и тревожных расстройств в позднем возрасте.
4. Александровский Ю.А. Этиологические факторы и механизмы формирования невротических расстройств // Психиатрия: национальное руководство. М.: ГЭОТАР-Медиа.
5. И.П. Убеева, Н.В. Верлан, С.М. Николаев. Применение лекарственных растений, обладающих седативным действием в лечении заболеваний нервной системы.